

81.2ʻ56

A85

Астанаова, Гүлнора.

Шарқ тиллари ва эски ўзбек ёзуви [Матн]. Кўпликда / Гүлнора Астанаова - Бухоро: Бухоро Nashryoti, 2020. - 24 б.

ISBN 978-9943-6257-5-4

КБК 81.2ʻ56

Mazkur usuliy qo'llanma 5120100-Filologiya va tillarni o'qitish (o'zbek tili) ta'lim yo'nalishi malaka talablari, o'quv va ishchi rejalari hamda fan va ishchi dasturlari asosida ishlab chiqildi.

Tuzuvchi: G.A.Astanova – BuxDU o'zbek tishunosligi kafedrasida dotsenti, f.f.n.

Taqrizchilar:

A.R.Ahmedov – BuxDU o'zbek tishunosligi kafedrasida dotsenti, f.f.n.

A.F.Ahmedov – Buxoro davlat muzey-qo'riqxonasi "Hujjatlar" fondi ilmiy xodimi, sharqshunos-arabshunos

KIRISH

Davlatimizning xorijiy sharq mamlakatlari bilan ijtimoiy, siyosiy, madaniy va iqtisodiy aloqalari mustahkamlanib borayotgan bir paytda chet tillarini, jumladan, sharq tillarini mukammal biluvchi, salohiyati filologlar, tarjimonlar, sinxron-tarjimonlarni yetishtirib berish kunning dolzarb masalalaridan biri hisoblanadi. Bunda O'zbekistonning uluksiz ta'lim tizimiga chet tillarini o'rgatish bo'yicha xalqaro ta'lim standartlarini joriy qilish va "chet tillarni egallashning Ummunevropa kompetensiyalari: o'rganish, o'qitish, baholash" darajalariga asoslanish muhim ahamiyat kasb etadi.

Mazkur maqsadlardan kelib chiqqan holda tuzilgan ushbu usuliy qo'llanma "Sharq tillari va eski o'zbek yozuvi" bo'yicha bakalavriat yo'nalishida tahsil olayotgan talabalarga mo'ljallangan bo'lib, mustaqil ta'lim mavzularini o'z ichiga oladi.

Usuliy qo'llanma sharq tillarini o'qitish uchun kommunikativ-faoliyatli, shaxsga yo'naltirilgan, integrativ va salohiyatli yondashuvlarga asoslanish zaruratidan kelib chiqqan holda yaratildi. Xususan, bunda kommunikativ-faoliyatli yondashuv rivojlantiruvchi funksional va kommunikativ xususiyatga ega bo'lib ta'lim jarayonida faollikni kuchaytirishga yordam beradi; shaxsga yo'naltirilgan yondashuv talabani bosqichma-bosqich rivojlanishini kuzatish shaxsiyatini rivojlantirish uchun qulay shart-sharoit yaratishga qaratilgan; integrativ yondashuv talabani turli hil sohalardan (adaptatsion, shaxsiy-relevant, umuminiyotekna va kasbiy) olingan materiallarni bir shaxsiy-relevant, umuminiyotekna va kasbiy) olingan materiallarni bir xil darajada qo'llashni nazarda tutadi; salohiyatli yondashuv ma'lum bir daraja va yetarli salohiyatga ega bo'lishga qaratilgan.

"Sharq tillari va eski o'zbek yozuvi" fanining asosiy maqsadi talabalarga hozirgi arab tiling nazariy va amaliy asoslari haqida atroflicha bilim berish, ularda arab tilida erkin va mustaqil mushohada yuritish, egallagan bilim va ko'nikmalarini amalda qo'llash malakasini shakllantirish, soha bo'yicha ilmiy-tadqiqot olib borish ko'nikmalarini berishdan iborat. To'rt yilga mo'ljallangan kurs mobaynida talabalar arab tiliga oid asosiy ma'lumotlarni bilib olish bilan birga, tiling uslublari, tarjima nazariyasi va amaliyotiga oid ko'nikmalarga ham ega bo'lishlari e'tiborga olinadi.

Mazkur usuliy qo'llanma BuxDU metodik kengashining 2020-yil "26.02.2020" dagi "5" - son yig'ilishida nashrga tavsiya etilgan.